

## INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISH

**Xolboyev Nurjon Abdujabbor o'g'li**

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Inklyuziv ta'lim - nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim turli xil ehtiyojli bolalarni ta'lim olishi xaqida fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv, strategiya, fe'l-atvor, korreksion, ehtiyoj, tenglik, boqimandalik, uyg'unlashmoq, shaxs, jamiyat.

Hozirgi kunda jahon miqyosida keng targ'ibot qilinayotgan inklyuziv ta'lim strategiyasi, ya'ni o'sishi va rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash masalasi O'zbekistonda ham dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Inkluziv so'ziga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, u ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion–uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi.

**Inklyuziv ta'lim** - umumta'lim jarayonini rivojlantiradi va barcha bolalarga mos bo'lgan ta'limni joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishiga oid qo'shimcha moslamalarni tashkil qilib bolalarni ta'lim olishiga qulay sharoit yaratadi. Imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ta'lim tizimida o'qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi. Shuningdek, ular o'z oilasidan uzoqda bo'lishga majbur bo'ladilar bu esa ular fe'l-atvorlarida turli salbiy illatlarning shakllanishiga turtki bo'ladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o'rganib qoladilar, o'z - o'ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari juda ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ayrim sabablarga ko'ra, masalan ota-onalarni maxsus maktabinternatlarga yubormasligi sababli ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Alohida ehtiyojli bolalarning ota-onalarini xohish-istaklarini inobatga olgan holda va ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash maqsadida Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyati, nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumta'lim tizimida ta'lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim siyosati amalga oshirilmoqda.

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik - pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajralmagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish;

- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Imkoniyati cheklangan bola ham barcha bolalardek bola hisoblanadi va u tan olinishi, hurmatga sazovor bo'lishiga haqli, shuning uchun ularni nuqsoni bilan atalishi nomaqbul hisoblanadi. Imkoniyati cheklangan bolalar normal rivojlanishdagi bolalar kabi topshiriq va vazifalarni tezlik bilan mukammal amalga oshira olmasalarda, ammo imkoniyat darajasida bajara oladilar.. Darhaqiqat, bu ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish oson kechmaydi. Ammo bu ta'lim tizimining naflari jihatida juda ko'p ular sirasiga quyidagilar kiradi:

- Inklyuziv ta'lim qashshoqlik iskanjasidan qutilishga imkon beradi;
- Inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi;
- Kamsitishlarni oldini oladi.

Maxsus yordamga muhtoj bolalarning asosiy muammolarini ular o'zlari yashab turgan muhitdan, oiladan uzoqda ta'lim tarbiya berish bilan hal qilib bo'lmaydi. Ammo bugungi kunda ham juda ko'plab bolalar turli xildagi sabablarga ko'ra ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Inklyuziv ta'limga jalb qilishning tashkiliy, ilmiyuslubiy choralarini ko'rib chiqish, ya'ni mutaxassislarni tayyorlash, malakasini oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Alohida yordamga muxtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb qilishning ikki asosiy omili bor:

Birinchidan, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar ham sog'lom bolalar bilan birgalikda o'zaro faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus ehtiyojli bolalar ijtimoiy tomondan himoyalanaдилar, sog'lom bolalar esa ijtimoiy adolat va tenglikning tan olinishi buyukligini, nogiron bolalarga nisbatan yanada mehribon va e'tibor bilan munosabatda bo'lishni his etadilar.

Ikkinchidan, nogiron bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan yonmayon o'qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligi kafolatlanadi.

Alohida ehtiyojli bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'z qobiliyati darajasida faoliyat ko'rsatish, ta'lim olishi, kasb-xunar o'rganishi va rivojlanishi

mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus yordamga muhtoj bolalar ijtimoiy tomondan himoyalanaдилar, ijtimoiy hayotda teng huquqliligini, o'z tengdoshlari bilan birga bilim olishlari mumkinligini his etadilar.

Umumta'lim maktablariga inklyuziv ta'limni joriy etishda sinf rahbari va o'qituvchilar asosiy paradigma vazifasini o'taydi. Chunki sinfga yangi bola yoki alohida ehtiyojli bola bo'lsa, sinfdagi o'quvchilar jamoasi o'qituvchi hattiharakatlariga qarab o'sha o'quvchiga munosabat bildiradi. Shu bois alohida ehtiyojli bolalarning oddiy sinflarda o'qitilishi o'qituvchiga yana bir ma'suliyat yuklaydi. O'qituvchining alohida ehtiyojli bolalarga bo'lgan samimiy munosabati sinfdagi sog'lom bolalarga ham ijobiy ta'sirini o'tkazadi. O'quvchilarda nogiron insonlargabo'lgan munosabat shakllanadi. Ularda nogiron shaxslarni jamiyatda ajratmaslik, bunday insonlar hayotda o'z o'rnilarini topishlari uchun ko'mak berish kabi insoniy fazilatlar shakllantiriladi. Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyoj uning jamiyatga va maxsus ehtiyojli bolalar uchun quyidagi nafli jihatlari mavjudligidan kelib chiqadi:

- inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli bolalarga doimo o'z oilasi mahallasi va qarindosh-urug'lari davrasida bo'lishga imkon beradi;

- inklyuziv ta'lim barcha uchun, ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin;

- bolalarni oilasidan, o'yidan uzoqda bo'lgan internatlarga joylashtirish ularning o'yi, oilasi hamjamiyat hayotiga ishtirok etish huquqiga to'sqinlik qiladi;

- o'yidan, oilasidan, ota-ona mehridan uzoqda bo'lgan bola diydasi qattiq bo'lib o'sadi. Chunki oila tarbiyaning bosh markazidir.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga qabul qilinishi o'quvchilarni yanada bolaga qaratilgan faolroq va ko'proq o'quvchilarni qamraydigan yangi o'qitish uslublarini ishlab chiqishga undaydi. Buning nafi esa hamma bolaga tegadi.

Umuman olganda, inklyuziv ta'limni O'zbekistonda joriy qilishning yana bir afzallik tomoni shundaki, maxsus ta'lim muassasalari mavjud bo'lmagan joylarda ham imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim tizimiga to'liq jalb qilinishiga imkoniyat yaratiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Sh.A.Amonashvili va b. "Pedagogik izlanish" Toshkent "O'qituvchi" 1990 yil.
2. M.G.Davletshin "Ta'limning psixologik asoslari" Toshkent "O'qituvchi" 2000 yil.